

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FAOLIYATINING ASOSIY KAFOLATLARI TO'G'RIDA”GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA QO'SHIMCHA KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 18-oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 21-oktabrda ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-aprelda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida”gi 480-II-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-yil, № 3-4, 34-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2018-yil, № 1, 4¹-modda; 2019-yil, № 2, 47-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi mazmundagi 1¹-modda bilan to'ldirilsin:

“1¹-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy ramzlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining belgisi va shtandartiga (bayrog'iga) ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining belgisi va shtandarti (bayrog'i) tavsifi, ulardan rasmiy foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi”.

2-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 25-oktabr,
O'RQ-724-son

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.10.2021-y., 03/21/724/0994-son)